





## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


### Asosiy tarkib, mlrd. so'm



### O'sish sur'atlari, % da




### Tarkibiy qism, % da



### Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **627,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **0,2** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi **33,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **101,4** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi **593,9** mlrd. so'mni (**0,3** % ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **26,1** mlrd. so'mni (**9,1** % ga kamaydi) tashkil etdi.

### Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





## HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

### ENG YUQORI ULUSH

Navoiy sh.  
177,1

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **28,2 %** ulush bilan **177,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Karmana t.  
103,2

Xatirchi t.  
83,9

Qiziltepa t.  
82,1

Zarafshon sh.  
62,9

Navbahor t.  
35,3

Uchquduq t.  
30,4

Nurota t.  
29,6

Konimex t.  
17,7

Tomdi t.  
5,2

### UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi **627,4** mlrd. so'mni, 2020-yilning yanvar oyiga nisbatan **99,8 %** ni tashkil etdi.

Viloyatimizning Navoiy shahridan tashqari barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **94,6 %** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **5,4 %** yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

### ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,8 %** ulush bilan **5,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.




## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, % da	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>627 446,6</b>	<b>99,8</b>	<b>33 580,0</b>	<b>101,4</b>	<b>593 866,6</b>	<b>99,7</b>
Navoiy sh.	177 060,1	98,1	25 342,1	85,2	151 718,0	100,7
Zarafshon sh.	62 905,2	100,1	1 700,0	172,3	61 205,2	98,9
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	103 146,4	100,5	2 308,9	11,3 m	100 837,5	98,4
Konimex	17 711,3	101,1	522,9	6,2 m	17 188,4	98,6
Qiziltepa	82 136,0	100,4	1 048,8	199,0	81 087,2	99,8
Navbahor	35 304,0	100,0	282,3	3,9 m	35 021,7	99,5
Nurota	29 608,5	101,0	342,5	186,9	29 266,0	100,4
Tomdi	5 235,3	100,2	19,8	111,8	5 215,5	100,2
Uchquduq	30 394,7	100,9	271,2	2,8 m	30 123,5	100,3
Xatirchi	83 945,1	100,7	1 741,5	144,3	82 203,6	100,1


2020- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Konimex (101,1 %), Nurota (101,0 %), Uchquduq (100,9 %) va Xatirchi tumanlarida (100,7 %) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi, nisbatan past ko'rsatkichlar Navoiy shahri (98,1 %) va Navbahor (100,0 %) tumanida qayd etildi.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

### Yirik korxonalar




### Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **1,4 %** ga o'sdi va **33,6 mlrd.** so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **5,4 %** ulushiga to'g'ri keladi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari



### Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **593,9 mlrd.** so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **0,3 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **94,6 %** ni tashkil etdi.



## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, % da

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tomdi (**99,6 %**), Navbahor (**99,2 %**), Uchquduq (**99,1 %**), Nurota (**98,8 %**), Qiziltepa (**98,7 %**), tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **5,4 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy (**14,3 %**) va Zarafshon (**2,7 %**) shaharlarida, Konimex (**3,0 %**) va Karmana (**2,2 %**) tumanlarida kuzatildi.







## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar oyi holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **624,0** ming so'm (2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **1,9** % ga kamaydi) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Navoiy shahri (**1 216,1** ming so'm), Karmana (**812,8** ming so'm) va Uchquduq (**810,5** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>624,0</b>	<b>98,1</b>
Navoiy sh.	1 216,1	96,5
Zarafshon sh.	744,4	98,4
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	812,8	98,0
Konimex	493,3	99,4
Qiziltepa	537,5	98,9
Navbahor	310,5	98,4
Nurota	317,3	99,2
Tomdi	351,4	98,2
Uchquduq	810,5	100,1
Xatirchi	418,9	99,1




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, % da




Dehqon  
bozorlari



Chorva (parranda)  
bozorlari

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, % da



Uyushmagan  
savdo

Shu jumladan:

Dehqon  
bozorlari

Chorva  
bozorlari

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 26,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan 9,1 % ga kamaydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 14,0 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 91,5 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 12,1 mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati 90,3 %) tashkil etdi.

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, % da

Savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan  
savdo


26,1 mlrd. so'm, 100 %

Dehqon  
bozorlari

14,0 mlrd. so'm,  
53,6 %

Chorva  
bozorlari

12,1 mlrd. so'm,  
46,4 %



## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, % da	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, % da	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>26,1</b>	<b>90,9</b>	<b>14,0</b>	<b>91,5</b>	<b>12,1</b>	<b>90,3</b>
Navoiy sh.	5,2	103,8	5,2	103,6	-	-
Zarafshon sh.	0,1	15,0	0,1	15,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	6,7	73,5	0,6	106,6	6,0	71,1
Konimex	0,9	113,9	0,4	101,5	0,5	123,2
Qiziltepa	2,6	104,5	1,4	100,4	1,2	109,0
Navbahor	0,1	126,1	0,1	125,9	-	-
Nurota	1,7	112,4	0,7	102,3	1,1	119,1
Tomdi	0,2	59,7	0,2	59,6	-	-
Uchquduq	0,4	104,2	0,4	104,0	-	-
Xatirchi	8,1	101,4	4,9	87,9	3,3	131,2

2021- yilning yanvar oyida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo tovar aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **14,0** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **12,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



2021- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo tovar aylanmasi hajmi **14,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi (**7,7** mlrd. so'm) ga to'g'ri keldi.

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI



2021- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo tovar aylanmasi hajmi **12,1 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **9,5 mlrd. so'mni**, qo'y va echkilar **2,4 mlrd. so'mni**, otlar **0,1 mlrd. so'mni**, parrandalar **0,1 mlrd. so'mni** tashkil etdi.





## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mln. so'm	2020- yil- ning yanvar oyiga nisbatan, % da	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil- ning yanvar oyiga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil- ning yanvar oyiga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>14 727,0</b>	<b>91,8</b>	<b>1 246,7</b>	<b>179,1</b>	<b>13 480,3</b>	<b>87,9</b>
Navoiy sh.	5 323,5	87,1	663,0	97,1	4 660,5	85,8
Zarafshon sh.	2 412,6	104,5	567,6	-	1 845,0	79,9
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	2 794,0	99,1	16,1	117,3	2 778,0	99,0
Konimex	267,0	80,9	-	-	267,0	80,9
Qiziltepa	1 148,3	84,1	-	-	1 148,3	84,1
Navbahor	448,4	83,9	-	-	448,4	83,9
Nurota	345,1	84,6	-	-	345,1	84,6
Tomdi	47,6	68,8	-	-	47,6	68,9
Uchquduq	536,8	83,5	-	-	536,8	83,5
Xatirchi	1 403,7	97,3	-	-	1 403,7	97,3

2021- yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,3 %** ni tashkil etib, **14,7** mlrd. so'mga yetdi va 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **8,2 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **91,5 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO TOVAR AYLANMASI

	Jami, mln. so'm	Ulushi, % da	Nodavlat mulk, mln. so'm	Ulushi, % da	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>14 727,0</b>	<b>100,0</b>	<b>14 067,9</b>	<b>95,5</b>	<b>659,1</b>	<b>4,5</b>
Navoiy sh.	5 323,5	36,2	4 664,4	87,6	659,1	12,4
Zarafshon sh.	2 412,6	16,4	2 412,6	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	2 794,0	19,0	2 794,0	100,0	-	-
Konimex	267,0	1,8	267,0	100,0	-	-
Qiziltepa	1 148,3	7,8	1 148,3	100,0	-	-
Navbahor	448,4	3,1	448,4	100,0	-	-
Nurota	345,1	2,3	345,1	100,0	-	-
Tomdi	47,6	0,3	47,6	100,1	-	-
Uchquduq	536,8	3,6	536,8	100,0	-	-
Xatirchi	1 403,7	9,5	1 403,7	100,0	-	-

2020- yil yanvar



2021- yil yanvar



■ Nodavlat mulk


■ Davlat mulki

2020- yilning yanvar oyi bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiy ovqatlanish korxonalarining jami savdo tovar aylanmasidagi ulushi 4,3 % dan 4,5 % ga ko'paydi.


Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **14,7** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati **91,8** %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **14,1** mlrd. so'm nodavlat mulkka (**95,5** %) hamda **0,6** mlrd. so'm (**4,5** %) davlat mulkiga to'g'ri keldi.

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI


Asosiy tarkib, % da




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, % da



### Savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **106,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **1,9** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **12,5** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **84,8** %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **94,3** mlrd. so'mni (**0,2** % ga o'sdi) tashkil etdi.





## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, % da	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, % da	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar oyiga nisbatan, % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>106,8</b>	<b>98,1</b>	<b>12,5</b>	<b>84,8</b>	<b>94,3</b>	<b>100,2</b>
Navoiy sh.	46,2	92,8	11,7	80,2	34,5	98,0
Zarafshon sh.	2,4	104,6	-	-	2,4	104,6
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	34,5	108,2	0,6	-	33,9	106,5
Konimex	0,6	142,3	0,2	-	0,4	92,9
Qiziltepa	11,9	114,7	-	-	11,9	114,7
Navbahor	3,2	89,1	-	-	3,2	89,1
Nurota	1,3	59,9	-	-	1,3	59,9
Tomdi	0,1	51,7	-	-	0,1	51,7
Uchquduq	1,8	78,5	-	-	1,8	78,5
Xatirchi	4,8	83,0	-	-	4,8	98,0


Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari Konimex (142,3 %), Qiziltepa (114,7 %), Karmana (108,2 %) tumanlarida va Zarafshon (104,6 %) shahrida kuzatildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida 2020- yilning mos davriga nisbatan kamayish ko'rsatkichlarini Navoiy (92,8 %) shahrida hamda Xatirchi (83,0 %), Navbahor (89,1 %), Uchquduq (78,5 %), Nurota (59,9 %) va Tomdi (51,7 %) tumanlarida ko'rishimiz mumkin.



## MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'zni ko'payib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi **0,19 %** ni tashkil qildi. 2021- yilning yanvar oyi yakunlari bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi **106,8** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi **106,6** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **0,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkini hozirda faqatgina Karmana tumanida saqlanib qolinganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.